

Metallurgiya sohasida yangi foydali model

O'zbekiston Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo institutining Metallurgik jarayonlar va texnogen xom ashyo laboratoriyasi tomonidan yaratilgan "Ishlatilgan kadmiy-kalsiy-fosfat katalizatoridan kadmiyni ajratib olish usuli"ga foydali modeliga patent berildi.



Ushbu foydali model metallurgiya sohasiga oid bo'lib, asosan ikkilamchi xom ashyodan kadmiyni ajratib olish usullariga tegishli va tarkibida kadmiy, kalsiy, fosfor va uglerod bo'lgan chiqindilardan toza kadmiyni arzon va oson topiladigan nitrat kislotasidan foydalangan holda samarali ajratib olish - texnik vazifa yechimini taklif etadi.

